



INTERNET AND ITS USE BY YOUNG PEOPLE

Muhammadbobur Muminov

researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: information, media, youth culture, culture of information use, ideological immunity.

Received: 22.12.24

Accepted: 24.12.24

Published: 26.12.24

Abstract: The article analyzes and provides information, based on scientifically grounded data, about the role of information in today's society, its formation, youth's information skills, problems in accessing information, and the necessary skills to overcome them.

INTERNET VA UN DAN YOSHLARNING FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Muhammadbobur Muminov

tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axborot, media, yoshlar madaniyati, axborotdan foydalanish madaniyati, mafkuraviy immunitet

Annotasiya: Maqolada bugungi kunda axborotning tutgan o'rni, uning shakllanishi va yoshlarning axborot ko'nikmalari, axborot olishdagi muammolari va ularni bartaraf etishda talab etiladigan ko'nikmalar sohaga oid ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida tahlil qilinib ma'lumot beriladi.

ХАРАКТЕРИСТИКИ ИНТЕРНЕТА И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖЬЮ

Мухаммадбабур Муминов

исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информация, медиа, молодежная культура, культура использования информации, предоставляется информация о роде

идеологический иммунитет.

информации в современном обществе, е
формировании, информационных навыка
молодёжи, проблемах в получении
информации и необходимых навыках для и
преодоления.

Bugungi kunga kelib, internet tizimining ijtimoiy tarmog'ida ma'naviy, axloqiy tubanlikni "targ'ib" etuvchi sahifalarning soni bir nech yuz miliondan oshayotganligi insoniyatni yanada tashvishlantiradi. Bu haqda Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojia. Bundan tashqari birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida "mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchliroq" degandi. Agarda qaerda bo'shliq hosil bo'lsa, o'zga mafkura kelib joylashadi. Bugun rivojlangan dunyoning har jabhasida mafkura mashinasi ishlayotganiga guvoh bo'lamiz. Dunyoda mafkuraviy tahdid, okkupasiya uchun juda ko'plab ilmiy tekshirish institutlari faoliyat olib boradi.

Globalashuv jarayonida mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko'rinadi. Inson o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol.

Bugungi kun yoshlari hayotini texnologiya va virtual olam shunchalik egallab olganki uning ta'siri ostida hatto maktab ta'lim tizimi ham shunga moslashib bormoqda. Sababi, zamonaviy pedagog o'z navbatida bolalarning mashg'ul bo'layotgan mashg'ulotlari haqida to'liq tasavvur etishi va o'z navbatida shu orqali undan himoya qilish yoki targ'ib qilish xususiyatini shakllantiradi. Axborot almashinuvida ishtirokchi bo'lgan yoshlarning foydali axborotlardan ko'ra vayronkorlik yoki salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi axborotlardan foydalanishga intilishi ko'p bo'lishi oqibatida ularning to'lig'icha onlayn muhit shakllantirib o'zlari uchun alohida kontent shakllantirishi mavjud muammolarni yanada rivojlantirib bormoqda. Garchi yoshlar, ayniqsa shahar yoshlari, bolalikdanoq kundalik hayotda texnologiyalardan foydalanishga ko'nikkan bo'lsalarda, zamonaviy yoshlar bu hodisa bilan to'qnashayotgan birinchi avlod. Ularda media bilan o'zaro ta'sirlashish va atrofdagi narsalarni idrok etish tug'ma qobiliyati yo'q.

XX asrning so'nggi choragiga kelib, ko'plab rivojlangan davlatlarda yoshlarga doir faoliyat mustaqil faoliyat yo'nalishiga aylandi, unga doir umuminsoniy tendensiyalar va ustuvorliklarni belgilaydigan xalqaro hujjatlar qabul qilina boshladi. Xususan, 1985-yilda BMT

Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to‘g‘risida”gi rezolyusiya ana shu jarayonning butun dunyoda ustuvor xususiyat kasb eta boshlaganini anglatadi. Globallashuv jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butunjahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘layotgani va yoshlar omilining alohida e‘tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumandagi “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir” degan xulosasi esa BMTga a‘zo barcha mamlakatlar vakillarining diqqatini o‘ziga qaratgani bejiz emas. Prezidentimizning Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining 2018-yil 10-iyundagi majlisida ilgari surilgan “BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasi”ni ishlab chiqish va qabul qilish to‘g‘risidagi taklifi ham ayni shu nuqtai nazardan nihoyatda dolzarb vazifalar mavjudligini anglatadi[9].

Yosh media foydalanuvchilari vizual va kommunikativ madaniyatning yangi toifasi vakillaridir. Yoshlar, moda haqidagi blogni yuritayotgan o‘spirin moda olamiga oz ta‘sirini ko‘rsata olishiga yoki yosh musiqachi turli ijtimoiy kontentlar orqali dunyoga mashhur bo‘lib ketishi mumkinligiga ishonadi. Ular uchun “mashhur insonga aylanish” o‘zini namoyon qilish hamda shu orqali tor yoki keng doiradagi, ba‘zan xalqaro miqyosdagi foydalanuvchilar qo‘llab-quvvatlashi va e‘tirofiga sazovor bo‘lishdan iboratdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali Yoshlar ayni damda o‘zidan olisda bo‘lgan yaqinlari bilan muloqotda bo‘lish va yangi do‘stlar orttirishidan tashqari internetda o‘zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko‘rishi mumkin. Uyatchan va kamgap inson tarmoqda ochiq va sergap bo‘lishi, o‘zlashtirish darajasi past o‘quvchi onlayn o‘yinlarda o‘zini aqlli strateg va harbiy qo‘mondon sifatida va yana ko‘plab ko‘rinishda namoyon qilishi mumkin. Virtuallikdagi “qahramonlik”ning tugallanish nuqtasi bo‘lgan real hayotda to‘qnash kelgan taqdirda ularning hayoloti bilan reallik umuman mos kelmasligi ularni hatto virtuallikda qolish istagini kuchaytiradi. Shuningdek, mafkuraviy immuniteti to‘g‘ri shakllangan va o‘zini munosib tuta oluvchi yoshlar guruhida ko‘plab Yoshlar tarmoqdagi do‘stlari bilan real hayotda ham uchrashib turadi.

Bugungi kunda, AKT vaziri bergan ma‘lumotlariga qaraganda, O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 31 mlndan oshganini ma‘lum qildi. Ulardan 29,5 mln nafari mobil internet orqali tarmoqqa ulanadi. Shuningdek, xalqaro internet-kanalga ulanish tezligi so‘nggi ikki yilda

2,6 baravarga oshib, 3200 Gbit/sga etganini qayd etdi. Bundan tashqari quyidagi jadvalda internetdan foydalanuvchilarning yildan yilga o‘shib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Globalashayotgan jamiyatda axborot hatto xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya’ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo‘lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo‘ladilar. Bu esa hatto mamlakatlar o‘rtasida yoshlarni buzg‘unchi yoki bunyodkor shaxs sifatida shakllantirishda manfaat jihatidan o‘ziga tegishli qilib tarbiyalash istagini oshiradi va bu mamlakatlararo mafkuraviy kurash shaklini ham namoyon etadi. Shunga ko‘ra ko‘pgina davlatlarda globalashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg‘unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar.

Shu o‘rinda axborot manbalari masalasi chuqurroq tahlil qilinadigan bo‘lsa, uni uch toifaga ajratish mumkin. Tajribali foydalanuvchi turli xil axborot manbalarining bir nechtasini tanlaydi va zaruratga ko‘ra ulardan foydalanadi.

Birlamchi manbalar – bu asl manbalar bo‘lib, ular axborotning izohlanishini nazarda tutmaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, amaliy san’at asarlari, qo‘lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar, shaxsiy maktublar, og‘zaki hikoya, intervyu yoki diplomatik hujjatlar bo‘lishi mumkin. Aksariyat holatlarda va ma’lum vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.


Ikkilamchi manbalar axborotni etkazib beruvchilardir. Bu holatda axborot o‘zgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki ma’lumotlar talqini). Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham o‘zida nufuzli yoki xolis axborotni saqlamaydi. Axborotni sub’ektiv baholash holatlarini, tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki ma’lum vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Uchlamchi manbalar – bu tashkil etilgan va o‘zida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o‘zida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qo‘llanmalar, ensikpopediyalar, ko‘rsatkichlar, xronologik jadvallar, ma’lumotlar bazasi va hokazo) manbalardir.

Axborot savodxonligi – qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generasiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo‘lgan kompetensiyalar to‘plamidir. Axborot borasida savodxon insonlar quyidagi tayanch ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qila bilish va undan o'z fikrini bayon etishda foydalanish, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, davlat faoliyati va jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlarda ishtirok etish, xabardor fuqaro va o'z kasbining ustasi bo'lishga tayyor bo'lish.

Pastdagi rasmda hozirgi kunda internetdan foydalanayotgan foydalanuvchilarning kun sayin oshib borayotganini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda foydalanuvchilarning internetdan foydalanishini cheklab yoki biron bir to'siq qo'yib bo'lmaydi faqatgina ulardan internetdan foydalanish madaniyatini yoki axborot olish savodxonligini shakllantirish mumkin.



Axborot borasida savodxon inson axborot izlash jarayonini o'z vaqtida to'xtatishni ham biladi. Mavjud barcha ma'lumotlarni to'plab bo'lmaydi. Axborot borasida savodxonlik etarli darajada ma'lumot to'plangan va hali qayta ishlanmagan ma'lumot manbalari ko'p bo'lishiga qaramasdan, olingan yangi ma'lumot o'zlashtirilmaydigan nuqtaga erishilgan paytni aniqlash imkoniyatini beradi.

Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham Birinchi Prezident Islom Karimov “Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur”[2] ligi haqidagi fikrni alohida ta'kidlaganlar.

“Immunitet” so'zining ma'nosi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha berilgan: (lot. – biron narsadan xalos, ozod bo'lish, qutulish) - tirik mavjudotlarning o'z butunligi va biologik noyobligini buzuvchi yot omillardan himoyalaniishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligi. Yot omillarga bakteriya va ularning toksinlari, viruslar, zamburug'lar, sodda jonivorlar, gelmintlar, ko'chirib o'tkazilgan a'zo va to'qimalar, organizmning o'zgargan o'z hujayralari va boshqalar kiradi. Bu omillar organizm uchun irsiy begona bo'lgan kimyoviy agentlar – antigenlarni tutib qoladi[1].

Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib etishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir.

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalliklariga bo'lgan ishonchga quriladi. Bu ishonch esa ishontirish, tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston – dunyoviy davlat. Dunyoviy davlat faoliyatining asosiy tamoyillari, afzalliklari ularni diniy davlat bilan taqqoslagandagina keng va to'liq tushunchalarni beradi. Bu dunyoviy milliy-demokratik tuzumning mohiyati va afzalliklarini anglab etishga olib keladi.

Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyasiya (manus – qo'l), so'zi, ya'ni obekt ustidan biror maqsadda ish olib borish ma'nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik, mahorat talab qilinishi ko'zda tutiladi. Shu sababli “manipulyasiya”ni ko'chma ma'noda “odamlar bilan obekt sifatida munosabatga kirishish” deb ham tushunish mumkin.

Bunda, ya'ni g'oyaviy manipulyasiyada qanday jarayonlar kechadi? Avvalo g'oyaviy manipulyator (da'vatchi)ning maqsadi – unga o'z tasavvurlarini o'zgartirishga olib keluvchi belgi, bilimlar bera boshlaydi. Natijada obekt (shaxs)ning dunyo, din, hayot, yashashdan maqsad kabi tasavvurlari, qadriyatlarini tizimida da'vatchi-manipulyator kutayotgan tartib paydo bo'ladi va etakchilik qila boshlaydi. Bu esa shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, shaxs o'z xarakteridagi o'zgarishlarni sezmaydi va “men to'g'ri yo'l tutayapman, chunki”, degan asosga ega bo'lib qoladi[4].

Axborot olish madaniyati, ya'ni axborot savodxonligi bo'yicha xorijiy mamlakatlarga nazar solinsa, kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. “Axborot savodxonligi” atamasi aynan mana shu e'tibor natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, axborot savodxonligi bo'yicha milliy forumlar yaratilgan bo'lib, yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan.

XX asr oxirilariga kelib, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va Internetning yartilishi natijasida axborot uzatuvchi soha bo'lmish jurnalistikaning mahsulot tayyorlash jarayonida mislsiz o'zgarishlar ro'y berdi. Agar ilgari bizning tasavvurimizda telejurnalist kasbi ko'rinishida televidenening ko'chma television stansiyalari jamlangan katta maxsus avtobuslar, elkada bazo'r turadigan og'ir videokameralar, qo'pol chiroq uskunalari yoki radio jurnalistning o'zi bilan ko'tarib yuradigan haybatli ovoz yozish uskunalari ko'z oldimizga kelgan bo'lsa, internet

jurnalistika paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan jurnalist ijodi mahsulotini yaratishda ishchi kuchining qisqarishi, salmoqli mablag' va vaqtning tejalishiga imkoniyat paydo bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kun yoshlari taraqqiy etgan texnologiyalar olamida cheksiz takliflar chegarasida mavjuddir. Ularning axborot sintez xususiyati mavjudlik darajasiga ko'ra axborotdan foydalanish doirasini belgilaydi. Mazkur tanlov ularning hayotiga ta'sir o'tkazishidan tashqari jamiyat hayotiga ham ta'sirini o'tkazadi. Sababi yoshlarning qanday g'oya ostidagi axborotlardan foydalanishi va uni targ'ib etishi shu millatning kelajagiga ham ta'sirini o'tkazadi. Texnik moslamalar va internetga kirish imkoniyati taqdim etilar ekan, internetdan xavfsiz va to'g'ri foydalanish bo'yicha qo'llanma ham berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoev. Toshkentda bulib o'tgan "Ijtimoiy barkarorlikni ta'minlash, mukaddas dinimizning sofliqini asrash - davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqi. 15.06.2017 yil. Toshkent.
2. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. - T.: Extremum-press, 2017.
3. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjaeva, S. Nishonova, J. Hasanboev, M.Usmonboeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.
4. O'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi / B.Xodjaev, M.Maxmudova - Toshkent: «Tafakkur qanoti», 2016.
5. Ochik axborot tizimlarida axborot- psixologik xavfsizlik: ukuv kullanma Umarov B., Axmedova M. Uzbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi; Uzbekiston davlat jaxrn tillari un-ti : - T. Chashma Print, 2013.
6. Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. - М.: Либеря-Бибинформ, 2007.
7. <http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot> olish madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy-meyorlarning o'rni/
8. Internet va axborot: xizmatlar, foydalanish asoslari. o'quv qo'llanma // Qudratxo'jaev Sh. Toshkent. Istiqlol, 2013.